

O'ZBEKISTONDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Norboyeva Dilnoza Darvishaliyevna

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası o'qituvchisi

Qurbonov Tohir

Jizzax politexnika instituti 532-22 guruh, 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Xizmat ko'rsatish sohasi - mijozlarning ehtiyojlari, istaklari yoki intilishlarini qondiradigan xizmatlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan texnologiya va tashkiliy tarmoqlar konfiguratsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xizmat, iqtisodiyot, muassasa, xizmatlar sohasi, hududlar bozor xizmatlari, ishlab chiqarish.

Xizmatlar sohasi bu –korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy yo'nalishlari orasida ustunlik mavqeini egallaydi. Bu murakkab ko'p qirrali mexanizm bo'lib, savdo va transportdan tortib ta'lim va sug'urta xizmatlarigacha bo'lgan keng doiradagi faoliyatni qamrab oluvchi zamonaviy iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Restoran va mehmonxona, sataroshxona va ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari va ta'lim muassasalari, sayyohlik kompaniyalari, auditorlik va konsalting kompaniyalari, banklar, poliklinikalar, sanatoriylar, damnolish uylari - bularning barchasi xizmatlar sohasiga taalluqlidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar faoliyatining xilma xilligi, shuningdek, xizmatlar sohasidagi turli faoliyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ushbu sohaning jadal rivojlanishi uchun omil bo'lib xizmat qiladi. Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rilayotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi. Deyarli barcha hududlarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga

ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida moliyaviy va transport xizmatlari, savdo, aloqa va axborotlashtirish kabi xizmatlarning ulushini ortishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (140,6%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (133,9%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (129,5%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,1%) qayd etildi.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2022 yilda qabul qilingan «Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident qarori sohada kichik korxonalar va mikrofirmalarni imtiyozli kreditlash, imtiyozli soliq stavkalarini joriy etish, yangicha xizmat turlarini tashkil etish yuzasidan infrastrukturnalarni yaxshilash hamda tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali xizmatlar xajmini yanada kengaytirish uchun rag'bat bo'lmoqda.

2023 yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, YaIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsada, YaIM (YaQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 44,1% dan 47,1% ga oshganini ko'rishimiz mumkin.

YaIMning boshqa tarmoqariga nazar tashlaydigan bo'lsak, jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 20,9% dan 20,1% ga, sanoatning ulushi 28,0% dan 26,3% ga, qurilish tarmog'ining ulushi 7,0% dan 6,5% ga kamaydi.

Joriy yilning o'tgan 8 oyida tarmoqlar kesimidagi o'sish ko'rsatkichlari 2022 yilning mos davriga nisbatan o'zgarishlari quyidagicha aks etgan:

- xizmat ko'rsatish sohasi + 58,7trln.so'mga;
- qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi + 12,9 trln.so'mga;
- sanoat sohasi + 12,6trln.so'mga;
- qurilish sohasi + 3,3 trln.so'mga oshgan.

Iqtisodiy tarmoqlarda xizmatlar sohasining o'sish sur'ati yuqori bo'lganligi sababli, ushbu sohadagi o'zgarishlar hamda rivojlanishlar kelgusida ham yanada o'sishi prognoz qilinmoqda.

Xizmatlar sohasi o'sish tendensiyasi-davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan oqilona foydalanish bilan birgalikda, sohaga keng qamrovda tadbirkorlarni jalb qilish va bu orqali aholi bandligini ta'minlash kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar yotadi.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasida 40 168 ta (2022 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2 244 taga ko'p tashkil etilgan) kichik biznes sub'yektlari tashkil etilib, 1 sentyabr holatiga ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 336 613 taga yetdi.

Respublikamizda joriy yilning o'tgan 8 oyida xizmatlar hajmi 288,4 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,5 foizga, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi esa 110,1 foizga o'sib, 7,9 mln. so'mga yetgan.

Bugungi kunda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarining 70,4 foizi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelmoqda hamda jami band bo'lgan aholining 55 foizidan ortig'i xizmatlar sohasida ishlab kelishmoqda.

Toshkent shahrida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish maqsadida Toshkent shahar hokimligi «O'zmilliybank» AJ bilan birgalikda mas'ul etib belgilangan so'ng, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida quyidagilarga erishildi. Jumladan, 2023 yilning 8 oyligida korxonalar va tashkilotlar tomonidan jami 116,8 trln.so'mlik xizmatlar ko'rsatildi. O'tgan yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 89,3 trln.so'mni, davriy o'sish esa 18,2 foizni tashkil etdi.

Jumladan, 2023 yilning 8 oyligida korxonalar va tashkilotlar tomonidan jami 116,8 trln.so'mlik xizmatlar ko'rsatildi. O'tgan yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 89,3 trln.so'mni, davriy o'sish esa 18,2 foizni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasi keng qamrovliligi bilan iqtisodiyotda, aholi hayotida muhim o'rin tutadi. Bu sohada yangi ish o'rinlarini kam xarajat bilan va tez muddatda tashkil etish mumkin. Aholi daromadlarining real o'sishi ham avvalo xizmatlar rivojida seziladi.

Joylarda tadbirkorlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish bo'yicha murojaatlar, tashabbuslar ko'p bo'lmoqda. Ular asosida viloyat, tuman va shahar hokimliklari joriy yilda xizmatlar sohasida 59 trillion so'mlik 42 mingta yangi loyihani amalga oshirish, 150 mingta doimiy ish o'rni yaratish bo'yicha rejalar belgilagan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni
2. Norboyeva, D. D. (2023). ZAMONAVIY SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI BOSHQARISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 167-171.
3. Норбоева, Д. Д. (2023). ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИДА УРБАНИЗАЦИЯ ВА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ МЕҲНАТ БОЗОРИГА ТАЪСИРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 156-162.
4. Norbayeva, D. D. (2023). MENEJMENTDA BOSHQARUV USLUBINI JORIY ETISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTDAN FOYDALANISH AHAMIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 163-166.

5. Darvishaliyevna, N. D. (2023). INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BOSHQARISH. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 62-66.
6. Darvishaliyevna, N. D. (2023). BOSHQARUV USLUBLARINI TATBIQ ETISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTDAN FOYDALANISH ZARURATI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 21-25.
7. Darvishaliyevna, N. D. (2023). MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH HAMDA YANGI ISH JOYLARINI YARATISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 68-72.
8. Darvishaliyevna, N. D. (2019). Indo–Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR).
9. Darvishaliyevna, N. D. (2021). PRODUCT QUALITY MANAGEMENT IN THE ENTERPRISE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 168-170.
10. Норбоева, Д. Д. (2019). КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ. Экономика и социум, (9 (64)), 208-210.
11. Норбоева, Д. Д. (2019). МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ. Экономика и социум, (9 (64)), 204-207.
12. Darvishaliyevna, N. D. (2024). Corporate Position, Risk and Brand in Achieving Financial-Economic Stability. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(4), 613-619.